



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 8-may, № 89 (8712)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini
telefoningiz orqali skaner qiling.



VENGRIYA BILAN KO'P QIRRALI HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI QAYD ETILDI



**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
7-may kuni qo'shma Hukumatlararo
komissiya tadbirlarida ishtirok etish uchun
mamlakatimizga kelgan Vengriya tashqi
ishlar va savdo vaziri Peter Siyyartoni
qabul qildi.**

Peter Siyyarto davlatimiz rahbariga Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi hamda uchinchi Toshkent investitsiya forumi muvaffaqiyatli o'tkazilgani bilan tabrikлади.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan Vengriya o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Ikki mamlakat strategik sherikligi izchil mustahkamlanib, amaliy aloqalar jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Barcha darajalarda faol muloqotlar davom etmoqda. Keyingi yillarda tovar ayirboshlash hajmi ikki barobar ko'paydi, qo'shma loyiha va korxonalar soni oshmoqda.

Sanoat, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, baliqchilik, logistika, ko'chmas mulk obyektlarini qurish va boshqa yo'nalishlardagi loyihalarni ilgari surish masalalari ko'rib chiqildi. Toshkent viloyatida Vengriya va Yevropa kompaniyalarining loyihalari uchun maxsus iqtisodiy zonani tez fursatda ishga tushirish muhimligi ta'kidlandi.

Gumanitar almashinuv ham kengaymoqda. Talabalarimiz Vengriyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olmoqda.

Shuningdek, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi, shu jumladan, Turkiy davlatlar tashkilotidagi hamkorlik masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI AMALIY TASHRIF BILAN ROSSIYADA BO'LADI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev 8-9-may kunlari
amaliy tashrif bilan Moskva shahrida
bo'ladi.**

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan mamlakatimiz yetakchisi kuzatuvchi davlat rahbari sifatida Oliy Yevrosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig'ilishida hamda Ikkinchi jahon urushidagi G'alabaniy 79 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirlarda ishtirok etadi.

Tashrif doirasida qator ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazilishi ham rejalashtirilgan.

O'ZA.

Muloqot

BMT VA O'ZBEKISTON MUNOSABATLARINING ISTIQBOLLARI MUHOKAMA QILINDI

*Kecha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Raisi Tanzila Norboyeva BMTning
O'zbekistondagi doimiy koordinatori vazifasini
bajaruvchi Konsuelo Vidal Bryus bilan uchrashuv
o'tkazdi.*

Uchrashuvda O'zbekiston Respublikasining BMT va uning ixtisoslashtirilgan idoralari bilan hamkorligining hozirgi holati va istiqbollari, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, gender tenglikni ta'minlash, yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda ekologik muammolar, jumladan, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'z navbatida, muloqot davomida O'zbekistonning mintaqaviy va global ahamiyatga molik dolzarb masalalarni hal qilish borasidagi sa'y-harakatlari va davlat rahbari tomonidan xalqaro maydonda ilgari surib kelinayotgan tashabbuslar BMT tomonidan to'liq qo'llab-

quvvatlanishi ta'kidlandi. Bu esa ushbu nufuzli tuzilma bilan munosabatlarni izchillik kasb etayotganining yaqqol tasdig'idir.

Konsuelo Vidal Bryus xonim O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yuksak baholab, respublikamizning BMT bilan hamkorligi yangi bosqichda rivojlanayotganini qayd etdi.

Do'stona va konstruktiv ruhda o'tgan uchrashuvda tizimli muloqotni davom ettirish, barqaror rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish, umuman, barcha yo'nalishdagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan loyihalarini davom ettirishga kelishib olindi.

“Xalq so'zi”.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

HAYOTIY MASALALAR XALQIMIZ ISHONCHINI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi
majlisi bo'lib o'tdi. Unda mamlakatimizda amalga
oshirilayotgan demokratik islohotlarning huquqiy
asosini takomillashtirish, huquqbuzarliklar va
jinoyatlarining oldini olish, aholiga ko'rsatilayotgan
bandlik xizmatlari samaradorligini oshirish, fitosanitariya
talablarini yengillashtirishga qaratilgan bir qator qonun
loyihalarini atroflicha muhokama qilindi.*

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi hamda transport vazirlari axborotlari eshitildi. Hisob

palatasining o'tgan yildagi faoliyatiga doir masala muhokama markazida bo'ldi.



Xalqaro forum oldidan

QIT'A AYOLLARINI BIRLASHTIRUVCHI MUHIM PLATFORMA

Ayolning nozik jussasida farzandlari, oilasi, qolaversa, butun jamiyat va millatning og'ir va zalvarli yukini ko'tarishga qodir matonat va shijoat bor. Xotin-qizlar dunyoning buguni va ertasi qanchalik farovon, tinch-osoysisht bo'lishida muhim o'rin tutadi. Ayollari e'zozlangan, qadri baland tutilgan yurtlar barqaror rivojlanib borayotganida ham ayni shu haqiqat mujassam.

Ammo ayolga e'tibor barcha mamlakatda ham bir xil emas. “BMT-Ayollar” tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra bugungi kunda dunyo bo'ylab ayollarning 10,3 foizi o'ta qashshoqlikda yashamoqda, millionlab nozik xilqat vakillari esa ilm olish, mehnat qilish, erkaklar bilan teng miqdorda oylik

maosh olish imkoniyatidan mahrum. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi ham shu muammolarni kamaytirish va gender tenglikka erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Bugun 2030-yilga borib BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga

erishish bo'yicha kutilayotgan natijalarni ta'minlash uchun bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlarni yanada jadallashtirish talab etilmoqda. Gap shundaki, 2030-yilga borib 342 million nafar ayol kambag'allik girdobida qolishi mumkinligini ekspertlar bashorat qilmoqda. Shu bois dunyo mamlakatlari ayollar qashshoqligini tugatish va gender tenglikni ta'minlashga yordam beradigan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va ushbu sohaga investitsiyalarni jalb qilish masalalariga alohida e'tibor qaratayotir.



“Boysun bahori”:

UNUTILMAS TAASSUROTLAR BAXSH ETGAN FESTIVAL

Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi xushmanzara maskan — Bibishirin mahallasi hududida “Boysun bahori” xalqaro folklor festivali bo'lib o'tdi. Ushbu san'at anjumaniga dunyoning 20 ga yaqin davlatlaridan 200 dan ortiq san'at va madaniyat arboblari, xalq ijodiyoti namoyandalari, badiiy jamoalar tashrif buyurdi.

Boqiy qadriyatlar

“Boysun bahori” xalqaro folklor festivali doirasida Termiz shahrida “Surxon vohasining insoniyat sivilizatsiyasidagi o'rni: moddiy va nomoddiy madaniyat asoslari” mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya, xalqaro ko'rik-tanlov o'tkazildi. Shuningdek, xalqimizning ko'p ming yillik an'analari, bebaho san'ati, xususan, xalq dostonlari,

milliy sozlar hamda liboslar, taomlar, hunarmandchilik buyumlari, tasviriy va amaliy san'at asarlari ko'rgazmalari, dron-shoular, mushakbozlik, etnosport bellashuvlari, uluq-ko'pkari, kurash, tosh ko'tarish, arqon tortish, xo'roz urishtirish, varrak sayli kabi turli xalq o'yinlari tashkil etildi.

2002-yilda asos solingan “Boysun bahori” festivali bir yildan so'ng yana bir marta o'tkazilib, so'ngra 2004 — 2016-yillar oralig'ida noma'lum

sabablarga ko'ra o'tkazilmay qolgan edi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2017-yilda qayta tiklangan va uch marta bo'lgan festival koronavirus pandemiyasi tufayli 2020-2021-yillarda qoldirildi. Nihoyat, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-fevraldagi “Boysun bahori” xalqaro folklor festivalini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq 2022-yilning 7-8-may kunlari tashkil qilindi. Shundan so'ng xalqaro festival bundan buyon UNESCO shafeligi ostida har 2 yilda bir marta uyushtirilishi belgilandi. E'tiborlisi, Turizm qo'mitasi Boysunga “Turizm tumani” maqomini berdi.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLIKLARI, HOKIMLIKLARI, KORPORATSIYALARI, BANKLAR,
BARCHA TA'LIM MUASSASALARI, TASHKILOTLAR VA QO'SHMA KORXONALAR RAHBARLARI DIQQATIGA!

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

2023/2024 o'quv yilida bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarning intellektual salohiyatidan unumli foydalanish va ish bilan ta'minlashga ko'maklashish maqsadida ishga taqsimlash jarayoni boshlanganini xabar qiladi. 2024-yil 30-may kuni o'tkaziladigan "Karyera kuni" mehnat yarmarkasi tadbiriga taklif etamiz. Shu munosabat bilan bitiruvchi yosh mutaxassislarga siz rahbarlik qilayotgan korxona, tashkilot va muassasada ehtiyoj mavjud bo'lsa, talabnoma va so'rov xati bilan hamda taklif etilayotgan lavozim to'g'risidagi ma'lumotlar bilan murojaat qilishingizni so'raymiz. Universitetni tugatayotgan malakali yosh mutaxassislar haqidagi ma'lumotni quyidagi jadvalda e'tiboringizga havola etamiz.

BAKALAVRIAT

kodi	Yo	Bitiruvchilarning umumiy soni	Shu jumladan viloyatlar bo																												Boshqa davlatlar			
			Qoraqalpog'iston Respublikasi		Andijon viloyati		Buxoro viloyati		Jizzax viloyati		Navoiy viloyati		Namangan viloyati		Samarqand viloyati		Surxondaryo viloyati		Sirdaryo viloyati		Toshkent viloyati		Farg'ona viloyati		Xorazm viloyati		Kashkadaryo viloyati		Toshkent shaxri					
1	2	3	4			5		6		7		8		9		10		11		12		13		14		15		16		17		18		19
			jami	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh			
1	5111000	Professional ta	25	5	20	1	4	1	1	1			1		1				4		2	3	1	2				2	1					
2	5150900	Dizayn (turlari bo	53	13	40					2			1							1	2	5					6	8	28					
3	5230100	Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo	28	7	21			1	1			1					2	4	1	1	1	1	1	5	2		1	1	5					
4	5230200	Menegment (tarmoqlar va sohalar bo	37	12	25	1		1	1	1	2		2			1		1				5	1	3				7	11					
5	5231900	Korporativ boshqaruv	60	16	44		1	1					2	4	1		1	2	1			2	4	10	3	1	1		2	5	19			
6	5310100	Energetika (tarmoqlar bo	182	29	153	2	11	3	1	2	12	2	4	10	3	5	2	12	2	7		4	23	5	2	6	4	28	5	27				
7	5310200	Elektr energetikasi (tarmoqlar va yo	206	27	179	1	7	1	6	5	10	9	4	16		5	10		17	1	3		27	2	7	2	3	9	41	2	18			
8	5310300	Metallurgiya	100	9	91			1			4	6	5	20		3		9		2		5	1	30	2		2		1	2	7			
9	5310500	Avtomobilsozlik va traktorsozlik	73	11	62		2	1	2	1	1	4	4		4	1	6		4	2	2		5		4	3	7	12	3	5				
10	5310600	Transport vositalari muhandisligi (turlari bo	149	22	127	2	7	1	1	1	7	5		10	1	2	1	11		17	2	2	3	18	4	9	2	3	2	20	3	15		
11	5310700	Elektr texnikasi, elektr mexanikasi va elektr texnologiyalari (tarmoqlar bo	126	25	101	2	3			3	4	7	2	5	10	19		1	1	5		5		3	1	16	1	6	2	5	2	19	4	
12	5310800	Elektronika va asbobsozlik (tarmoqlar bo	110	22	88		8			4	1	5	1	5	1	9	1	2	1	8		3	2	3	5	10	3	1	1	5	18	4	9	
13	5310900	Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (tarmoqlar bo	78	13	65	1	4	1		2	8	1	2	1	4		3		3		2		1	2	12		3		2	1		4	21	
14	5311000	Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo	119	22	97		3	1	6	2	8		5	3	4		1		6	1	6		3	2	12		1		2	9	29	4	11	
15	5311100	Gidroenergetika	35	4	31		2				3	1	1		2	1			3		4		1	2	9				2		4			
16	5311500	Geodeziya, kartografiya va kadastr (funksiyalari bo	70	13	57		3		1			1	1	2	1	1	1		1	3		7	1	2	4	21		2		4	4	8		
17	5311600	Konchilik ishi (faoliyat turlari bo	99	29	70			1		4	5	1	2	5	11																			

MAGISTRATURA

kodi	Mutaxassisliklar nomi	Bitiruvchilarning umumiy soni	Shu jumladan viloyatlar buyicha																														
			Qoraqalpogʻiston Respublikasi		Andijon viloyati		Buxoro viloyati		Jizzax viloyati		Navoiy viloyati		Namangan viloyati		Samarqand viloyati		Surxondaryo viloyati		Sirdaryo viloyati		Toshkent viloyati		Fargʻona viloyati		Xorazm viloyati		Kashkadaryo viloyati		Toshkent shaxri				
1	2	3	4			5		6		7		8		9		10		11		12		13		14		15		16		17		18	
			jami	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh	g	sh		
1	70610701	Sun	2	1	1						1																			1			
2	70710201	Biotexnologiya (mahsulot turi bo	1	1																										1			
3	70710501	Gidroelektrstansiyalar	1	1				1																							1		
4	70710504	Issiqlik texnikasi (qo	1	1																										1			
5	70710506	Yadro energetikasi va issiqlik fizikasi	2	2															1											1			
6	70710601	Elektr ta	4	4										1								1							1	1			
7	70710603	Elektr energetikasi tizimlari va tarmoqlari (faoliyat turlari bo	1	1																										1			
8	70710701	Elektr mexanikasi (tarmoqlar bo	2	2																			1								1		
9	70710702	Elektr izolyasiyalı va kabellı texnika	1	1																			1								1		
10	70710901	Energiya tejamlkorligı va energoaudit (tarmoqlar bo	5	5										2		1				1											1		
11	70711001	Muqobil energiya manbalari (turlari bo	4	3	1													1					1						1		1		
12	70711101	Energiya mashinasozligi (tarmoqlar bo	2		2																									1		1	
13	70711302	Metrologiya, standartlashtirish va sifatlri boshqarish (tarmoqlar bo	4	4		1							2																		1		
14	70711401	Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish (tarmoqlar bo	3	3				1														1									1		
15	70711501	Mexatronika va robototexnika	6	6		1		1					1		2																1		
16	70712001	Elektron apparaturalar ishlab chiqarish texnologiyasi va elektronika sanoati texnologik mashina jihozlari	1	1									1																				
17	70712401	Avtomobilsozlik va traktorsozlik	3	2	1			2																			1						
18	70712501	Er usti transport vositalari va tizimlari (transport turlari bo	2	2																1			1										
19	70720708	Neft-gaz sanoati mashinalari va jihozlari	2	2				1																							1		
20	70720901	Kimyoviy va neft-gazkimyoviy texnologiyalar	2	2				1					1																				
21	70721801	Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish	1	1																											1		
22	70730302	Neft va gaz quvurlari, baza va omborlarini qurish va ulardan foydalanish	5	4	1							1								1											2	1	
		Jami	55	49	6	2		7			1	1		7		4		1		4		1	1	2		2			1	3	1	15	2

Izoh: G — grant asosida, Sh — shartnoma asosida.

Siz o'zingizni qiziqtirgan yosh mutaxassislar bilan bevosita uchrashib, suhbatlashib, ularning bitiruv ishi himoyalari qatnashib, o'zingizni qiziqtirgan barcha ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Takliflar bilan quyidagi telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin: 71-207-14-35.

Shu yilning birinchi choragida O‘zbekiston aeroportlari 3 130 386 nafar yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatgan.

